lashtirish, ularning huquqlarini himoya qilishga oid keng koʻlamli tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Keyingi yillarda mahallalarda xavfsiz muhitni yaratish va jinoyatlarning barvaqt oldini olish yoʻnalishida mutlaqo yangi mexanizmlarni joriy etish, huquqbuzarlikni sodir etishga sabab boʻlayotgan omillar tahlili asosida tegishli profilaktika choralarini koʻrish hamda aholida shaxsiy xavfsizlik hissini shakllantirish borasida samarali ishlar qilinmoqda.

"Oʻzbekiston – 2030" strategiyasida (President of the Republic of Uzbekistan, 2023) belgilangan ustuvor maqsadlarga erishish, shuningdek, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 3-yanvardagi "2025-yilda respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish boʻyicha chora-tadbirlar toʻgʻrisida"gi PQ–1-sonli (President of Republic of Uzbekistan, 2025), 2026-yil 5-yanvardagi "Respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish yoʻnalishida yaxlit manzilli ishlash tizimini joriy etishga qaratilgan qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida"gi PQ–1-sonli qarorlarida (President of the Republic of Uzbekistan, 2026) taʼkidlanganidek, aholining yashash maskan-manzillarida xavfsizlik, tinchlik-osoyishtalikni taʼminlash manfaatlaridan kelib chiqib, sodir etiladigan qonun buzilishlarining asl omillarini oʻz vaqtida aniqlash, jinoyatchilikning barvaqt oldini olish tizimining samaradorligini yanada oshirish oʻta dolzarb vazifa sifatida namoyon boʻlmoqda.

Darhaqiqat, bugungi kunda jinoyatchilikning kelib chiqish sabablari, unga imkon bergan shart-sharoitlarni, jinoyatchilikning salbiy tendensiyalarini ilmiy diagnoz asosida aniqlash va ularni bartaraf etishga alohida eʼtibor qaratilmoqda. Shulardan kelib chiqib, aytish mumkinki, voyaga yetmaganlar oʻrtasidagi jinoyatchilik – muayyan hududda, maʼlum vaqt mobaynida yoshlar oʻrtasida sodir etilgan jinoyatlar yigʻindisidir.

Mazkur tadqiqotning maqsadi voyaga yetmagan jinoyatchi shaxsiga kriminologik tavsif berish, uning belgilarini ilmiy va nazariy jihatdan tadqiq etish, bu borada tegishli taklif, tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot davomida voyaga yetmagan jinoyatchi shaxsining kriminologik tavsifi va uning oldini olish choralari oʻrganilgan. Tadqiqotda funksional yondashuv, mantiqiylik, tizimlilik, tarixiy, qiyosiy-huquqiy, statistik, sosiologik soʻrovlar oʻtkazish kabi metodlardan foydalanilgan, muallif tomonidan amaliyotni yaxshilash yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Asosiy qism**

Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi – 14 yoshdan 18 yoshga qadar boʻlgan shaxslar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarning yigʻindisidir. Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi ham umuman jinoyatchilikni vujudga keltiruvchi omillar taʼsirida rivojlanadi. Shu sababdan ham uni tadqiq etishda kriminologiyaga oid umumiy tavsiflar, koʻrsatkichlar va usullardan foydalaniladi.

Olimlarning fikricha, yoshlar va voyaga yetmaganlar sodir etgan jinoyatlar umumiy jinoyatchilikning boshlanish bosqichidir. Yosh jihatidan boshqa turdagi jinoyatchilar shaxsiga xos xususiyatlarning mavjudligi alohida xavfli boʻlgan voyaga yetmaganlar jinoyatchiligini keltirib chiqaradi.

S.A. Koryagina (2007) bu borada: "Yoshlar orasida jinoyatchilikning tarqalishi hech qanday asossiz barcha turdagi jinoyatlarning rivojlanish xususiyatlarini prognoz qilish imkoniyatini yaratadi", – deydi. Olimaning aytishicha, har qanday jamiyat hech qachon bir joyda toʻxtab turmaydi. Shunga munosib ijtimoiy jarayonlarni tartibga solib turuvchi huquq normalari ham takomillashtiriladi, tizimlar oʻzgartirilib, zamon talablariga moslashtirib boriladi.

K.Y. Loginova (2015) voyaga yetmaganlarning mulkiy jinoyatchiligini oʻrganib, "Voyaga yetmaganlarning mulkiy jinoyatchiligi – Rossiya Federatsiyasi Jinoyat kodeksining 21-bobida nazarda tutilgan mulkka qarshi jinoyatlar yigʻindisidan tashkil topgan, predmeti oʻzganing mulki boʻlgan, 14–17 yoshdagi shaxslar tomonidan muayyan hududda, maʼlum vaqt mobaynida sodir etilgan salbiy ijtimoiy-huquqiy, ommaviy hodisa", – deya taʼrif beradi.

Lekin bu borada K.Y. Loginova tomonidan voyaga yetmaganlarning mulkiy jinoyatchiligiga berilgan taʼrifdagi "14–17 yoshdagi shaxslar" jumlasiga qoʻshilmasdan, xalqaro va milliy qonunchiligimizda 18 yoshgacha boʻlgan davr voyaga yetmagan yosh ekanligi mustahkamlangani bois "14–18 yoshdagi shaxslar" deyilishi maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

N.A. Ramazonova (2019) voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarni tergov qilish faoliyatini oʻrganib, "Voyaga yetmaganlar tomo-

nidan sodir etilgan jinoyatlar deganda jinoyat qonunchiligida nazarda tutilgan jinoiy javobgarlikning minimal yoshi va milliy qonunchilik asosida voyaga yetish yoshi sifatida tan olingan yoshga yetgunga qadar sodir etilgan jinoyatlar tushuniladi", – degan ta'rifni ilgari surgan.

N.A. Ramazonovaning voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarga bergan ta'rifiga qo'shilmaymiz, chunki unda voyaga yetmaganning aniq yosh chegarasini belgilashi maqsadga muvofiq bo'lardi. Ayol jinsidagi voyaga yetmaganlar jinoyatchiligini o'rgangan Y.V. Samiulina (2009): "Voyaga yetmagan ayollarning jinoyati zamonaviy jinoyatchilikning o'ziga xos turi bo'lib, uning o'ziga xosligi kichik jinoyatchi shaxsining o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi hamda miqdor va sifat ko'rsatkichlariga ega bo'lgan muayyan hududda ma'lum vaqt davomida 14 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan ayollar tomonidan sodir etilgan barcha jinoyatlarning yig'indisidir", – deydi.

Fikrimizcha, so'nggi ta'rif ilgarigi mualliflarnikiga nisbatan ancha o'rinlidir. Bu fikr ham jamiyatning rivojlanishi bilan yanada to'liqroq ifodasini topadi. Ijtimoiy jihatdan, jinoyatchilik – yomon ishlarning takrorlanadigan ko'rinishi. Shu nuqtaiy nazardan kelib chiqib, Salex Ali Salem Al-Marfadiy (1997) voyaga yetmaganlarning xulq-atvoridagi og'ishni guruhlarga birlashtirish orqali ularni shartli ravishda kengaytirishni taklif etib, qiyin bolalar, ruhiy kasal bolalar, tashlab ketilgan va adashgan bolalar kabi guruhlarga ajratgan. Lekin bu fikrga qo'shila olmaymiz, chunki voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi sodir etilgan jinoyatlar tarkibidan iboratdir. Jinoyat uchun javobgarlik JK bilan belgilanadi va tartibga solinadi.

Shundan kelib chiqib, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi jinoyat-huquqiy hodisa sifatida o'rganiladi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining (Republic of Uzbekistan, 1994) 17-moddasiga asosan jinoyat sodir etgunga qadar o'n olti yoshga to'lgan, aqli raso jismoniy shaxslar jinoyat sodir etgunga qadar o'n to'rt yoshga to'lgan shaxslar ushbu kodeks 97-, 98-, 104–106-, 118-, 119-, 137-, 164–166-, 169-moddalari, 173-moddasining ikkinchi va uchinchi qismlari, 220-, 222-, 247-, 252-, 263-, 267-, 271-moddalari, 277-moddasining ikkinchi va uchinchi qismlarida nazarda tutilgan jinoyatlar uchun javobgarlikka tortilishi belgilab berilgan.

Respublikamizdagi jami voyaga yetmaganlar jinoyatchiligini tahlil qilganda yosh bo'yicha ajratish maqsadga muvofiq. Jami voyaga yetmaganlarning 18,7 foizni jinoiy javobgarlik yoshiga (14–18 yosh) yetganlar tashkil etadi. Voyaga yetmagan jinoyatchi shaxsiga kriminologik tavsif berishda avval shaxs, undan oldin inson tushunchalariga javob topishimiz lozim bo'ladi. Voyaga yetmagan jinoyatchi shaxsining ham kriminologik tavsifini tadqiq qilishda shaxsdagi kriminologik o'ziga xos xususiyatlarni o'rganish va hisobga olish taqozo etiladi, chunki jinoyatchi shaxsining jinoyatchi bo'lmagan shaxsdan farqini aniqlashga imkon beruvchi holatlar ushbu usullar yordamida aniqlanadi (Umirzakov, 2021).

Voyaga yetmagan shaxsning jinoyat sodir etishida psixologik omillarning ta'siri kuchli hisoblanadi. Misol uchun o'ch olish, zo'rlik ishlatish, xulq-atvordagi o'zgarishlar (salbiy tomonga), stress (ruhiy tushkunlik), aldash, qo'pollik, shafqatsizlik, ishonchsizlik va boshqa omillar jinoyat sodir etishda muayyan o'ringa egadir. Shuningdek, ota-onalar migratsiyasining bolalar psixologik holatiga ta'siri katta hisoblanadi.

Bundan tashqari, kam ta'minlangan oilalarda ota-onalarning safarda uzoq vaqt bo'lishlari ham bolalarning hissiy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bolalar ota-onalarini qo'msab, stress holatiga tushishi, o'z navbatida, ularning kayfiyatlari va fe'l-atvorlaridagi o'zgarishlarga sabab bo'ladi va bolalar psixologik farovonligining boshqa jihatlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi (UNICEF Uzbekistan, 2020).

Bir qancha olimlar voyaga yetmagan jinoyatchi shaxs xulq-atvorini o'rganishning psixologik jihatlarini tadqiq qilishgan. Individni jinoiy harakatga undovchi ehtiyojlar, qiziqishlar va atrof-muhit bilan individ o'rtasidagi o'zaro munosabatlar natijasida yuzaga keladigan psixik zo'riqishlar, ijtimoiy muhitga, undagi voqea-hodisalarga, ijtimoiy tartib va qoidalarga shaxsning moslasha olmasligi voyaga yetmaganlarda jinoyatchilik xulqini keltirib chiqarishi mumkinligi to'g'risida fikr-mulohaza bildirishgan.

Shu o'rinda voyaga yetmaganlarning jinoiy xulq-atvorni o'rganishning psixologik yo'nalishida avstriyalik psixolog, psixoanalitik, psixiatr va nevrolog Zigmund Freydning (Freud, 1926) *psixoanaliz nazariyasi* ham muhim o'rin tutadi. Bu nazariyaga ko'ra, voyaga yetmagan shaxsning jinoiy xulq-atvori shaxsning tabiiy instinktiv mayllariga

bog‘liq, deb tushuntiriladi. Ya’ni shaxsning xulq-atvorini harakatlantiruvchi kuchini va jismoniy hayotining mazmunini jinsiy instinkt belgilaydi. Shuning uchun kishining jinoiy xulq-atvori mazmunida ham jinsiy instinkt yotadi, degan fikrni jinoiy xulq-atvorning kelib chiqishidagi biologik omillarning bir ko‘rinishi sifatida qabul qilishimiz mumkin. Chunki jinsiy instinkt shaxsning biologik omillaridan biri hisoblanadi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqadiki, yoshlar va voyaga yetmaganlarda jinoiy xulq-atvorning shakllanishi va rivojlanishiga, albatta, ijtimoiy-sotsiologik omillarning ta’siri katta, biologik omillar ijtimoiy-sotsiologik omillar negizida rivojlanadi, lekin asosiy omil bo‘la olmaydi. Chunki voyaga yetmagan jinoyatchi shaxsi, yuqorida tilga olinganidek, onasidan jinoyatchi bo‘lib tug‘ilmaydi, balki uning jinoyatchi bo‘lib shakllanishiga va rivojlanishiga muayyan bir ijtimoiy-sotsiologik omillar ta’sir etadi, deb xulosa qilish mumkin.

Kriminologiyada jinoyatchi shaxsini o‘rganishda uning jinoyat-huquqiy, ijtimoiy-demografik va ma’naviy-ruhiy belgilarga ajratib o‘rganish tavsiya etiladi. Yoshlar va voyaga yetmagan jinoyatchi shaxsi, avvalo, jinoyatning subyektidir. Jinoyat subyekti va uning belgilari Jinoyat kodeksi Umumiy qismi 4-bobi – “Javobgarlikka tortilishi lozim bo‘lgan shaxslar”da to‘liq mustahkamlab ko‘rsatilgan. Bu belgilarni jinoyat umumiy subyektiga tegishli belgilar, deb nomlash qabul qilingan (Rustambayev, 2016).

Bundan tashqari, yoshlar va voyaga yetmagan jinoyatchi shaxsining jinoyat-huquqiy belgilariga sodir etilgan jinoyatning ijtimoiy xavflilik (og‘irlik) darajasi; muqaddam sudlanganligi; umumiy yoki maxsus retsidivning mavjudligi; aybning shakli; jinoiy tajovuzning yo‘nalishi; tajovuzning bir kishi yoki guruh tomonidan sodir etilganligi; jinoyat xulq-atvorning motivi; jinoyat sodir etilishidagi o‘rni va roli; bir nechta bir xildagi jinoyatlarni sodir etishi kiradi (Supreme Court of the Republic of Uzbekistan, 2006).

Ammo voyaga yetmagan jinoyatchi shaxsiga kriminologik va psixologik tavsif berish uchun jinoyat subyektining jinoyat-huquqiy belgilari yetarli emas. Bu belgilar faqat jinoyat sodir etgan shaxsning mavjudligini va ijtimoiy-xavfli qilmishining darajasini e’tirof etish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi xolos. Albatta, voyaga yetmagan jinoyatchi shaxsiga kriminologik tavsif berishda uning ijtimoiy-demografik belgilari ham muhim ahamiyat kasb etadi.

B.A. Umirzakovning (2021) ta’kidlashicha, voyaga yetmagan jinoyatchi shaxsining ijtimoiy-demografik belgilariga: yoshi, jinsi, ma’lumoti, o‘qishi yoki o‘qimasligi, ishlashi yoki ishlamasligi, oila qurgan yoki qurmaganligi (ajrashganlik), ilgari sudlanganligi; IIOda profilaktik hisobda turganligi; to‘liqsiz (otasi yoki onasidan biri yo‘qligi) yoki ajrashgan oilada, ijarada, shahar yoki qishloqda yashashi va h.k. kiradi.

Voyaga yetmagan jinoyatchi shaxsining ijtimoiy-demografik belgilari jinoyatchi shaxsning jamiyatda tutgan o‘rnini, oilaviy va ijtimoiy holati, voyaga yetmagan shaxsda jinoiy xulq-atvorning shakllanishiga olib kelgan omillarga aniqlik kiritish va oldini olishga doir chora-tadbirlarni ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi. Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining xususiyatlari va uning oldini olishga qaratilgan rivojlangan mamlakatlar qonunlarini tahlil qilishda Amerika Qo‘shma Shtatlarining tajribasini o‘rganish alohida ahamiyat kasb etadi, chunki u o‘ziga xos tizim va ilg‘or tajribaga ega davlat hisoblanadi.

Mazkur davlatda talaba yoshlar va voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oldini olishga qaratilgan o‘ziga xos normativ baza shakllantirilgan bo‘lib, bu borada AQSHning “Voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklari profilaktikasi va sudlovi to‘g‘risida”gi qonuni alohida ahamiyat kasb etadi (United States Congress, 2002). AQSHda voyaga yetmaganlar huquqlarini kafolatlashga oid qonunlarning kodifikatsiya qilinganligi bu masalaga davlatning aniq pozitsiyasi mavjudligini yaqqol ko‘rsatadi. Xususan, Voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklari to‘g‘risidagi federal kodeksda (U.S. Department of Justice, 2015) voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyat va huquqbuzarliklarni sud tartibida hal etish mexanizmlari belgilab qo‘yilgan.

AQSHda voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oldini olish hamda voyaga yetmaganlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini shakllantirish sohasida yo‘lga qo‘yilgan amaliyot ham diqqatga sazovor, maktab dasturlarida odil sudlov tizimi asoslarini o‘qitish yo‘lga qo‘yilgan (Akhyadov, 2016). Kursning o‘ziga xos xususiyati mashg‘ulotlarning o‘quvchilar xulq-atvoriga ta’sir ko‘rsatuvchi omil sifatida politsiya xodimlari tomonidan olib borilishidir. Dastur mualliflarining fikricha, ularning asosiy maqsadi bolani

yoshligidan ijtimoiy hodisalarni to‘g‘ri baholashga o‘rgatish, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan potensial xavfdan qochish va politsiya bilan munosabatga kirishish ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat (Guseynov, 2010).

AQSHning Florida shtati huquqni muhofaza qiluvchi organlari tomonidan ishlab chiqilgan hamda davlat va xususiy sektorda joriy etilgan huquqiy ta’lim dasturi ham e’tiborga loyiq. Talabalar va 7-8-sinf o‘quvchilariga mo‘ljallangan ushbu dastur shaxsning jamiyatdagi qadriyatlar tizimida tutgan o‘rni, fuqaroning majburiyatlari va jinoyat huquqi asoslari, huquq-tartibotni buzuvchilarni kutayotgan jazoga doir bilimlarni shakllantirishga qaratilgan. O‘rganilgan dasturlarning barchasi voyaga yetmaganlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini shakllantirishga, shu orqali jinoyatchilikning oldini olishga maxsus yo‘naltirilganini ko‘rish mumkin.

AQSHda ijobiy natija bergan maxsus dasturlardan yana biri yoshlar o‘rtasida giyohvandlikning oldini olishga qaratilgan bo‘lib, uning yordamida so‘nggi 15 yilda giyohvandlik moddalarini iste’mol qiluvchilarning ko‘rsatkichi 50 foizga kamayishiga erishilgan. Davlatda giyohvandlikka qarshi kurashuvchi 3,5 ming jamoatchilik tashkiloti faoliyat yuritadi. Ushbu davlatda mazkur sohada samarali faoliyat ko‘rsatayotgan xalqaro tashkilotlar ulushi ham yuqoriligini ko‘rish mumkin. O‘rganilayotgan yo‘nalishdagi rivojlangan mamlakatlar (shu jumladan, AQSH, Kanada, Buyuk Britaniya, Germaniya, Hindiston, Avstraliya) tajribasi shuni ko‘rsatadiki, huquqbuzarliklar profilaktikasi samaradorligi ularda tatbiq etilgan maxsus dastur hamda loyihalarga bevosita bog‘liqdir. “Qo‘shnilar nazorati” (*Neighborhood watch*), “Jinoyatchilikni to‘xtatamiz” (*Crimes stoppers*), “Tashqi muhitni tashkil etish orqali huquqbuzarliklar profilaktikasi” dasturi *(Crime prevention through environment design (broken window)* – “Huquqbuzarliklar profilaktikasini tashqi muhitdan kuzatuv ostiga olish” (siniq oynalar), “Xavfsiz shahar” (*Safe City*) kabi dasturlar shular jumlasidan bo‘lib, bugungi kunda amaliyotda ijobiy natijalar berib kelayotganligini kuzatish mumkin (Golovkina & Pototskiy, n.d).

Yuqoridagi davlatlar tajribasini o‘rganish asosida O‘zbekiston Respublikasida ham uzoq muddatga (2026–2030-yillarga) mo‘ljallangan “Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasini rivojlantirish konsepsiyasi”ni hamda uni hayotga tatbiq etish bo‘yicha yo‘l xaritasini ishlab chiqish va qabul qilish lozim, deb hisoblaymiz. Fikrimizcha, ushbu konsepsiyaning qabul qilinishi orqali 2030-yilga borib voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining umumiy dinamikasi va darajasi, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining tarkibi kamayishiga, shu bilan birga, voyaga yetmaganlarning huquq va qonuniy manfaatlari yuqori saviyada ta’minlanishiga erishiladi.

Fransiyada “Bolalarga nisbatan zo‘ravonlikning oldini olish to‘g‘risida”gi qonunda (2007-y.) bolalarga nisbatan zo‘ravonlik holatlari kuzatilganda tezkorlik bilan davlat va huquqni muhofaza qiluvchi organlarga murojaat qilish lozimligi belgilangan. Bundan tashqari, Fransiyada ayollar yoki voyaga yetmaganlar murojaat qilishi mumkin bo‘lgan bir qator markazlar mavjud bo‘lib, buning uchun 3919-ishonch telefoni raqamiga qo‘ng‘iroq qilish amaliyoti mavjud. Agarda oiladagi holat shuni talab qilsa, zo‘ravonlik qurboniga tashkil etilgan uylarga borib yashash taklif qilinadi (Murodov, 2019).

Germaniyada yoshlar va voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining xususiyatlarini “Bolalar va yoshlarga yordam to‘g‘risida”gi (“Kinder – und Jugendhilfegesetz – KJHG, § 11”) qonunning asosiy maqsadi “Bolaga quduqqa tushib ketishidan avval yordam ber!” shiori ekanligidan ham anglash qiyin emas (Kalinkina, 2015). Qonunga asosan tarbiyaviy ahvoli og‘ir bo‘lganlar bilan ishlovchi tashkilot va muassasalar tizimi belgilab berilgan. Mazkur tuzilmalarning ish faoliyati natijalari oilalarga ko‘rsatilayotgan yordamning hajmi va ko‘lami asosida baholanadi. Ushbu tizim ijtimoiy-psixologik va ijtimoiy-pedagogik yordam ko‘rsatish bilan shug‘ullanadi.

Voyaga yetmagan jinoyatchi shaxsining ma’naviy-ruhiy belgilari – uning intellekt (tafakkur) darajasi, qobiliyati, ko‘nikma va odatlari, irodaviy va hissiy xususiyatlari, yo‘nalishlari, qiziqishlari, qarashlari, huquq hamda axloq normalariga munosabati, ehtiyojlari, ehtiyojlarni qondirish uchun tanlaydigan usullari, giyohvand moddalar yoki spirtli ichimliklarni iste’mol qilishidir.

**Xulosa**

Yuqoridagilardan kelib chiqib, aytish lozimki, voyaga yetmagan jinoyatchi shaxsida jinoiy xulq-atvorning shakllanishiga olib keladigan omillarni

bartaraf etish va ularda ijobiy xulq-atvorni shakllantirish uchun avvalo ota-ona, ta'lim muassasasi, mahalla, ichki ishlar, jamoat birlashmalari, sog'liqni saqlash muassasalari oldida bir qancha vazifalar mavjud, bular:

birinchidan, voyaga yetmaganga ta'lim-tarbiya berishga ota-onaning o'zini tayyorlash bo'yicha ishlarni tashkil etish;

ikkinchidan, voyaga yetmaganlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish uchun uning yashash joyida ijodiy uylar va sport inshootlari hamda to'garaklarini tashkil etib, ularni jalb etish uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratish hamda har oyda kamida bitta sport turi bo'yicha musobaqalar va badiiy-ijodiyot kechalarini o'tkazish;

uchinchidan, namunali xulqqa ega, ta'lim muassasalarida a'lo baholarga o'qiyotgan, sport musobaqalari va badiiy-ijodiyot kechalarida o'zlarini ko'rsatayotgan namunali talabalarni doimo rag'batlantirish tizimini joriy etish; to'rtinchidan, ta'lim muassasalarida talabalar va o'qituvchilar o'rtasida ustoz-shogird an'anasini rivojlantirish, talabalarga o'qituvchilarga hurmat ruhini singdirish, davomatni yaxshilash va doim nazorat qilib borish;

to'rtinchidan, voyaga yetmaganlarning internet, ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish tartib-qoidalarini ishlab chiqib, ushbu qoidalarga rioya etilishini doimiy nazoratga olish;

beshinchidan, xulqi buzuq, darslarni muntazam sababsiz qoldiradigan, ma'muriy huquqbuzarlik yoki jinoyat sodir etgan voyaga yetmaganlarni qayta tarbiyalash mexanizmini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish. Bu barkamol avlodni tarbiyalash va talabalarda ijobiy xulq-atvorni shakllantirishga xizmat qilib, jamiyatimizda jinoyatchilikning kamayishiga erishiladi.

Yuqoridagi holatlardan xulosa qilib, voyaga yetmagan jinoyatchining tipik kriminologik portretini yaratadigan bo'lsak, bu statistik va kriminologik umumlashtirish bo'lib, har bir voyaga yetmagan huquqbuzar shaxsga to'liq mos kelmaydi. Ko'plab voyaga yetmaganlar qiyin ijtimoiy sharoitda yashasa ham, jinoyat sodir etmaydi. Shuning uchun mazkur belgilarni jinoyatchilikning sababi emas, balki ehtimoliy xavf omillari sifatida baholash lozim. Voyaga yetmagan jinoyatchining tipik kriminologik portreti – jinoyat sodir etgan o'smirlar orasida nisbatan ko'p uchraydigan ijtimoiy-demografik, psixologik, axloqiy va xulq-atvor xususiyatlarining ilmiy umumlashtirilgan majmuasidir. Mazkur portret muayyan shaxsni emas, balki kriminologik tadqiqotlarda aniqlangan tendensiyalarni aks ettiradi.

*Birinchidan, ijtimoiy-demografik xususiyatlar* – bunda voyaga yetmaganlar yoshi asosan 14–17 yosh oralig'ida bo'ladi. Jinoyat sodir etgan voyaga yetmaganlar orasida erkak jinsi vakillari ulushi yuqoriroq. Ko'p hollarda shahar atrofi yoki ijtimoiy nazorat nisbatan sust bo'lgan hududlarda yashaydi. Ayrim hollarda moddiy ta'minoti past yoki ijtimoiy xavfli oilalardan chiqqan bo'ladi.

*Ikkinchidan, oilaviy muhit xususiyatlari* – bunda noto'liq oilada tarbiyalanganlik yoki ota-ona nazoratining yetarli emasligi kuzatilishi mumkin. Oiladagi nizolar, zo'ravonlik, alkogolizm yoki boshqa asosiy holatlar mavjud bo'lishi ehtimoli yuqori. Tarbiya jarayonida emotsional qo'llab-quvvatlashning yetishmasligi kuzatiladi. Oila a'zolari tomonidan huquqiy va axloqiy qadriyatlar yetarli darajada shakllantirilmagani namoyon bo'lishi mumkin.

*Uchinchidan, ta'lim va ijtimoiylashuv darajasi* – bularga maktabga moslashishda qiyinchiliklar hamda o'qishga qiziqishning pastligi va dars qoldirish holatlari, pedagoglar va tengdoshlar bilan munosabatlarda muammolar, bo'sh vaqtni mazmunli tashkil etish imkoniyatlarining cheklanganligi kiradi.

*To'rtinchidan, psixologik xususiyatlar* – bunda impulsivlik va emotsional beqarorlik, o'z harakatlarining uzoq muddatli oqibatlarini baholash qobiliyatining yetarli darajada rivojlanmaganligi, tavakkalchilikka moyillik, muammolarni huquqiy va ijtimoiy maqbul usullar bilan hal qilish ko'nikmalarining zaifligi, tengdoshlar ta'siriga yuqori darajada beriluvchanlik nazarda tutiladi.

*Beshinchidan, axloqiy-huquqiy ong xususiyatlari* – bunda huquqiy normalarga nisbatan befarqlik yoki ularni to'liq anglab yetmaslik, shaxsiy manfaatlarni jamoat manfaatlaridan ustun qo'yish tendensiyasi, axloqiy qadriyatlar tizimining yetarli darajada shakllanmaganligi hamda ayrim hollarda jinoiy xulq-atvorni oqlashga moyillik kiradi.

*Oltinchidan, kriminogen muhit bilan bog'liq omillar* – deviant xulq-atvorli tengdoshlar guruhi ta'siri, nazoratsiz bo'sh vaqtning ko'pligi, internet va ommaviy axborot vositalari orqali tajovuzkor yoki antisotsial modellarni qabul qilish ehtimoli, mahallada ijtimoiy nazorat mexanizmlarining sustligidir.

*Yettinchidan, jinoiy faoliyatning xususiyatlari* – jinoyatlar koʻpincha vaziyat taʼsirida, oldindan chuqur rejalashtirilmasdan sodir etiladi. Guruh boʻlib harakat qilish holatlari yakka tartibda harakat qilishga nisbatan koʻproq uchraydi. Mulkka qarshi jinoyatlar, bezorilik kabi huquqbuzarliklar nisbatan keng tarqalgan. Jinoyat sodir etishda tengdoshlar bosimi muhim omil sifatida namoyon boʻlishi mumkin.

Xullas, zamonaviy kriminologiya nuqtayi nazaridan voyaga yetmagan jinoyatchi shaxsi biologik omillar emas, balki ijtimoiy muhit, oilaviy tarbiya, taʼlim jarayoni, tengdoshlar taʼsiri va shaxs psixologik rivojlanish xususiyatlarining oʻzaro taʼsiri natijasida shakllanadi. Shu sababli profilaktika choralari ham kompleks yondashuvga – oila, taʼlim muassasasi, mahalla va huquqni muhofaza qiluvchi organlar hamkorligiga asoslanishi lozim.

## REFERENCES


Akhyadov, E. S. (2016). *Otechestvennyy i zarubezhnyy opyt profilaktiki beznadzornosti i pravonarusheniy nesovershennoletnikh [Domestic and foreign experience in preventing child neglect and juvenile delinquency]. Young Scientist, 2*(106), 659–661.

Al-Marfadiy, S. A. S. (1997). *Kriminologicheskie i sotsialno-psikhologicheskie osobennosti prestupnosti nesovershennoletnikh v Respublike Yemen [Criminological and socio-psychological characteristics of juvenile delinquency in the Republic of Yemen]* (Candidate dissertation). Toshkent.

Freud, S. (1926). *Psikhologiya mass i analiz chelovecheskogo Ya [Mass psychology and the analysis of the human self]* (N. A. Stolyar, Trans.). Modern Issues.

Golovkina, A., & Pototskiy, N. (n.d.*). Zarubezhny opyt razrabotki programm profilaktiki pravonarusheniy [Foreign experience in developing crime prevention programs].* Pandia.ru. https://pandia.ru/text/78/094/83215.php

Guseynov, A. B. (2010). Profilaktika pravonarusheniy nesovershennoletnikh za rubezhom [Preventive maintenance of offenses of minors abroad]. *Theory and Practice of Social Development,* (3), 186–189. https://www.twirpx.com/file/1172281/

Harrendorf, S., Heiskanen, M., & Malby, S. (Eds.). (2010). *International statistics on crime and justice*. United Nations Office on Drugs and Crime (UNODC).

Kalinkina, M. Yu. (2015). *Gosudarstvennaya politika Germanii v sfere sotsialnoy i molodyozhnoy raboty* [Germany's state policy in the field of social and youth work]. *Education Abroad, 5*, 118–121.

Koryagina, S. A. (2007). *Analiz dinamiki sostoyaniya i struktury regionalnoy prestupnosti [Analysis of the dynamics, condition, and structure of regional crime]. Criminology, 10*, 15–18.

Loginova, K. Yu. (2015). *Imushchestvennaya prestupnost nesovershennoletnikh i mery yeyo preduprezhdeniya [Property crime of juveniles and measures for its prevention]* (Abstract of doctoral dissertation). Tomsk State University.

Mendelevich, V. V., & Mugantseva, L. V. (2003). Rasprostranennost narkomanii sredi podrostkov v Rossiyskoy Federatsii [Prevalence of drug addiction among adolescents in the Russian Federation]. *Narcology, 6*, 2–6.

Murodov, A. Sh. (2019). *Ichki ishlar organlarining oiladagi zoʻravonlik bilan bogʻliq huquqbuzarliklar profilaktikasini takomillashtirish [Improving the prevention of offenses related to domestic violence by internal affairs bodies]* (Abstract of doctoral dissertation). Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan.

President of the Republic of Uzbekistan. (2023). *Decree "On the strategy "Uzbekistan — 2030" (No. DP-158).* https://lex.uz/docs/-6600413

President of the Republic of Uzbekistan. (2025). *Resolution "On measures to further increase the efficiency of the system of creating a safe environment and early prevention of offenses in the mahallas of the republic in 2025" (No. RP-1).* https://lex.uz/docs/-7330260

President of the Republic of the Uzbekistan. (2026). *Resolution "On additional measures aimed at introducing an integrated, targeted system of work to create a safe environment in the mahallas of the Republic" (No. RP-1).* Lex.uz. https://lex.uz/docs/7978089

Ramazonova, N. A. (2019). *Voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarni tergov qilish uslubiyoti [Methodology of investigation of crimes committed by minors]* (Abstract of doctoral dissertation) Tashkent State University of Law.

Republic of Uzbekistan. (1994). *Criminal Code of the Republic of Uzbekistan*. Lex.uz. https://lex.uz/uz/docs/111453

Rustambayev, M. Kh. (2016). *O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga sharh. Umumiy qism [Commentary on the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan. General part]*. Adolat.

Samiulina, Ya. V. (2009). *Lichnost nesovershennoletnei prestupnitsy i vozdeistvie na neyo [The personality of a female juvenile delinquent and the impact on her]* (Doctoral dissertation). Saratov State Law Academy. https://www.dissercat.com/content/lichnost-nesovershennoletnei-prestupnitsy-i-vozdeistvie-na-nee

Supreme Court of the Republic of Uzbekistan. (2006, February 3). *Resolution "On the practice of sentencing for crime by courts" (No. 1)*. Lex.uz. https://lex.uz/docs/1455976

U.S. Department of Justice. (2015). *Criminal resource manual 117: Federal juvenile delinquency code*. https://www.justice.gov/jm/criminal-resource-manual-117-federal-juvenile-delinquency-code

Umirzakov, B. A. (2021). *Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining kriminologik tavsifi va oldini olishni takomillashtirish [Criminological characteristics of juvenile delinquency and improvement of its prevention]* (Abstract of doctoral dissertation). Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan.

UNICEF Uzbekistan. (2020, July). *Effects of migration on children of Uzbekistan*. UNICEF. https://www.unicef.org/uzbekistan/media/2936/file/Effects-of-migration-on-children-of-Uzbekistan-EN.pdf

United Nations. (1989). *Convention on the Rights of the Child*. UN Treaty Series. https://www.ohchr.org/en/instruments-mechanisms/instruments/convention-rights-child

United States Congress. (2002). *Juvenile Justice and Delinquency Prevention Act of 2002*. https://www.ojjdp.gov/about/ojjdpact2002.html

# YURISPRUDENSIYA

## HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2026-YIL 3-SON

VOLUME 6 / ISSUE 3 / 2026

DOI: https://dx.doi.org 10.51788/tsul.jurisprudence.6.3.

DOI: https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence